

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES | RESPUBLIKA KO'P TARMOQLI ILMYIY KONFERENSIYA

YANGI O'ZBEKISTON: 2023

CONFERENCES.UZ

INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM

DAVRIYLIGI: 2018-2023

DUNYO TARIXIDA KOSMOSGA
UCHGAN BIRINCHI INSON



Дуню Тарафиди

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORVIJ OLIY TA'LIM MUASSASALARI PROFESSOR-O'QITUVCHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR, MAGISTRANTLAR VA IJTIDORLI TALABALAR

TOSHKENT SHAHAR, AMIR
TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.

+998 97 420 88 81
+998 94 404 00 00

WWW.TAQIQOT.UZ
WWW.CONFERENCES.UZ



OKTYABR
№57

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:
ИННОВАЦИЯ, ФАН
ВА ТАЪЛИМ
1-ҚИСМ**

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:
ИННОВАЦИИ, НАУКА
И ОБРАЗОВАНИЕ
ЧАСТЬ-1**

**NEW UZBEKISTAN:
INNOVATION, SCIENCE
AND EDUCATION
PART-1**

ТОШКЕНТ-2023



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 57-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 октябрь 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 23 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган еттита устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофик:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари тахтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Проф. Хамидов Муҳаммадхон Хамидович «ТИИМСХ»

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЙЎНАЛИШИ

1. Ravshanov Surat Botir o'g'li YOSHLARNING HUQUQIY SAVODXONLIGINI YUKSALTIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR.	7
2. Тўраев Сардор Абдихаким ўғли КИБЕРЖИНОЯТЧИЛИККА ҚАРШИ КУРАШИШ МЕХАНИЗИМЛАРИ	10
3. Ravshanov Surat SOXTA TADBIRKORLIK JINOYATINING UMUMIY TAVSIFI VA BELGILARI.....	12
4. Рахимберганава Бону Давлатназаровна ЯНГИ МЕҲНАТ КОДЕКСИДА МУДДАТЛИ МЕҲНАТ ШАРТНОМАСИНИ ТУЗИШ ТАРТИБИ.....	15
5. Ashurov Nurbek Oybek o'g'li TURIZM SOHASIGA O'ID TERMINLARNING TASNIFI	18
6. Raximov Baxtiyor Abduxamidovich AFG'ONISTONDAGI NATO DAVLATLARI: MAQSAD VA YONDASHUVLAR	20



ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЙЎНАЛИШИ

YOSHLARNING HUQUQIY SAVODXONLIGINI YUKSALTIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR.

Ravshanov Surat Botir o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti
Korrupsiyaga qarshi kurash va komplayens
nazorati yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakatimizda yoshlarning huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida fikr bildirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Haq-huquq, qonuniy manfaat, huquqiy savodxonlik, o'quvchi, umumta'lim muassasasi, barkamol, yosh avlod, huquqbuzarlik.

O'zbekiston Respublikasi o'z Mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab yosh avlodning barkamolligi, mustaqil fikrli va mas'uliyatli bo'lishi hamda milliy istiqololni qadrlash, milliy qadriyatlarga chuqur hurmat, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, jismonan va ma'nan sog'lom bo'lishi uchun bir qator tizimli ishlarni amalga oshirdi. Shu bilan birga, ularning haq-huquqlari, qonuniy manfaatlarining himoyasini ta'minlash maqsadida huquqiy asoslar ham yaratildi.

Yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish yo'lida Mustaqillik davrida qator tadrijiy islohotlar amalga oshirildi. Yuqorida ta'kidlanganidek, yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish maqsadida bir qancha qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilindi. Bular sirasiga “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy dasturi”, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida”gi hamda “O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida”gi Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining “Yoshlarning huquqiy ta'limini takomillashtirish kompleks dasturi to'g'risida”gi Qarori kabilarni kiritish joiz.

Agarda yoshlar orasida huquqiy savodxonlik past bo'lsa, nafaqat, ularning o'zlari uchun, balki jamiyat va davlat uchun ham zararlidir. Huquqiy savodxonlikning yetarli emasligi yoshlarning o'z huquqlaridan to'laqonli foydalana olmasliklariga, majburiyatlaridan bexabar qolishlariga sabab bo'ladi. Majburiyatlardan bexabarlik yoki harakatlarining huquqiy oqibatini anglamaslik bugungi kunda yoshlar orasida huquqbuzarliklarning sodir bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Biz huquqiy-demokratik davlat qurishni oldimizga maqsad qilgan ekanmiz, buning uchun huquqiy ongi va madaniyati yuksak yoshlar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bunga esa huquqiy savodxonlikni oshiribgina erishishimiz mumkin. Qisqasini aytganda, “Faqat chuqur o'ylangan va tezkor davlat siyosatigina yoshlarning huquqiy madaniyatini ko'tara oladi va ularning huquqiy ongi darajasini yuksaltirishga yordam beradi”

Shu bilan birga, inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda yoshlarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to'sqinlik qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolayotgani ham ma'lum bo'ldi.

- Xususan, huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta'lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borilmayotgani, uzoq yillar davomida bu masala huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining ishi sifatida qarab kelinib, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ishtiroki yetarlicha ta'minlanmaganligi;

- yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy



qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg‘otish ishiga kompleks tarzda yondashilmaganligi;

- aholining huquqiy bilimlarini oshirishga doir vazifalarning umumiy tusda belgilanganligi hamda ularni amalga oshirishning aniq ta’sirchan mexanizmi mavjud emasligi jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi ishlarning samarasiz olib borilayotganligini aniqlandi. Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash g‘oyalarini aholi ongiga singdirish ishlarining yetarli olib borilmasligi ham qonun ustuvorligini ta’minlashga o‘zining jiddiy salbiy ta’sirini ko‘rsatadi. Aholining huquqiy bilimlari yetarli emasligi, shuningdek, davlat organlarining qonunga xilof qarorlari ustidan sudga shikoyat qilish imkoniyatidan deyarli foydalanmasligi mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishi holatlarining vujudga kelishiga sabab bo‘lmoqda.

Bundan tashqari, hozirgi globallashuv, ilmiy-texnik taraqqiyot davrida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning innovatsion usullaridan, targ‘ibotning ilg‘or va ta’sirchan vositalaridan, xorijiy davlatlarning bu boradagi ijobiy tajribalaridan yetarli darajada foydalanilmayotganligi ham aniqlandi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvarda PF-5618-sonli “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishni tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Mazkur farmonda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish “shaxs — oila — mahalla — ta’lim muassasasi — tashkilot — jamiyat” prinsipi bo‘yicha tizimli va uzviy tashkil etiladi.

Mazkur farmon bevosita yoshlar kamoloti uchun mas’ul bo‘lgan idoralar, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi (Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi) hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (Innovatsiya va oliy ta’lim vazirligi) Adliya vazirligi bilan birgalikda:

- 2019/2020 o‘quv yilidan boshlab ta’lim muassasalarida o‘quvchi va talabalarning huquqiy bilimlari uzluksiz va tizimli oshirib borilishini ta’minlash mexanizmini joriy etsin, shuningdek, o‘quvchi va talabalarning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan o‘quv dasturlarini tubdan qayta ko‘rib chiqilishini ta’minlash;

- 2019-yil 1-martga qadar yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, ayniqsa, ularning ongida korrupsiyaning jamiyat va mamlakat ravnaqi uchun o‘ta salbiy illat ekanligini targ‘ib qilishga qaratilgan o‘quv materiallari tayyorlanishini tashkil qilish;

- yosh avlodning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha ta’lim muassasalarining huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilishining samarali mexanizmlarini kengaytirish choralarini ko‘rish.

Yuqoridagi Farmonga asosan bolalar va o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda huquqiy ong va huquqiy madaniyatini shakllantirishga qaratilgan konstitutsiyani va inson huquqlarini o‘rganish bo‘yicha ko‘rgazmali qo‘llanmalarni tayyorlash va chop etish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga odob-axloq qoidalari va huquqning ilk tushunchalarini o‘rgatish bo‘yicha namunaviy qo‘llanma yaratish, yangi avlod huquqiy darsliklari va o‘quv qo‘llanmalari tizimini yaratish, umumta’lim maktablari boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun huquqiy bilimlarni sodda va ko‘rgazmali o‘rgatishga qaratilgan o‘quv qo‘llanmalarini, shuningdek, ta’lim muassasalari uchun huquq fanlari bo‘yicha o‘quv darsliklari va qo‘llanmalarini tayyorlash, yoshlarga o‘z huquqlarini himoya qilishning amaliy mexanizmlarini o‘rgatishga qaratilgan “Street law” (Ko‘cha huquqi — oddiy huquq) loyihasini keng joriy qilish bo‘yicha quyidagi tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish, ta’lim muassasalari o‘quvchilari va talabalari orasida huquq fanidan respublika miqyosida quyidagi tanlovlarni tashkil qilish va o‘tkazish, umumta’lim maktablari boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘rtasida “Huquq — bu to‘g‘rilikdir” mavzusidagi rasmlar tanlovini tashkil qilish, umumta’lim maktablari o‘quvchilari o‘rtasida “Mening huquq va majburiyatlarim” respublika ko‘rik-tanlovini tashkil etish hamda tanlov g‘oliblarini rag‘batlantirish, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimida “Siz qonunni bilasizmi?” ko‘rik-tanlovini tashkil qilish hamda tanlov g‘oliblarini rag‘batlantirish; oliy ta’lim muassasalarida “Huquq bilimdonlari” ko‘rik tanlovini tashkil qilish va tanlov g‘oliblarini rag‘batlantirish, yoshlarda korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarga qarshi murosasizlik tuyg‘usini shakllantirishga qaratilgan insholar tanlovini o‘tkazish, yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, ayniqsa, ularning ongida korrupsiyaning jamiyat va mamlakat ravnaqi uchun o‘ta salbiy illat ekanligini targ‘ib qilishga qaratilgan o‘quv materiallari tayyorlanishini tashkil qilish, bolalar va yoshlarga ularning huquqlari va odob-axloq normalari



haqida ma'lumot beruvchi ko'rgazmali targ'ibot bo'yicha quyidagi ishlarni amalga oshirish, layerlar, tarbiyasi og'ir voyaga yetmaganlarga kuchaytirilgan huquqiy ta'lim berish va tarbiyalashga oid maxsus dasturlarni qo'llash, yoshlarda sog'lom turmush tarziga bo'lgan intilishni shakllantirishga, ijtimoiy jihatdan xavfli kasalliklarga, giyohvandlikka, chekishga va boshqa zararli odatlarga qarshi kurashishga doir profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirishga, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli uyushtirishga, ommaviy yoshlar sportini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish, bolalar va yoshlarda davlat ramzlarini e'zozlash, uning qadr-qimmatini anglash, shuningdek, shaxsiy ehtiyojlar va jamiyat ehtiyojlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini targ'ib qilishga doir aniq rejalar asosida “ochiq darslar” va o'quv mashg'ulotlari o'tkazilishini ta'minlash, diniy ekstremizm, terrorism, “ommaviy madaniyat” va boshqa yot g'oyalarga qarshi mustahkam immunitetni shakllantirishga qaratilgan maxsus videoroliklar tayyorlash, yoshlar tomonidan sodir etilayotgan yo'l harakati qoidalarini buzish, noqonuniy avtopoygalar o'tkazish va boshqa noxush hodisalarning oldini olish maqsadida “Eng tartibli yosh haydovchi” loyihasini tashkil etish vazifalarini amalga oshirish belgilab qo'yildi.

Avvallari umumta'lim muassasalari bitiruvchi o'quvchilari huquqshunoslik oliy o'quv yurtiga o'qishga kirmoqchi bo'lsa, asosiy fan sifatida tarix fanini o'qishi kerak edi. Lekin, yoshlar orasida huquq faniga bo'lgan qiziqishni yanada oshirish maqsadida 2023-2024-o'quv yilidan boshlab Yuridik mutaxassisliklari tayyorlovchi yo'nalishlarda asosiy fan sifatida davlat va huquq asoslari fani belgilandi. Endi yoshlar maktab davridan qonunlarni mukammal o'qib OTM ga o'qishga hujjat topshiradilar. Bu ham yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur yo'nalishda samarali ishlar amalga oshirilishga qaramasdan bir qancha kamchiliklar ham saqlanib qolayapdi. Jumladan, umumta'lim fanlari o'rtasida 9-10-11-sinflar o'rtasida davlat va huquq asoslari fanidan fan olimpiyadasi o'tkazilar edi. Afsuski, so'nggi 2 yil davomida huquq fanidan fan olimpiyadasi o'tkazilmayapdi. Bu ham yoshlarning huquqiy savodxonligini yuksaltirishda amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish kerakki, huquqiy ta'lim tarbiya jarayonida sustkashlikka yo'l qo'yib bo'lmasligini, birgina yoshlarning huquqiy tarbiyasida qilingan xato ham keyinchalik mamlakat rivojiga salbiy ta'sir etishi mumkinligiga amin bo'ldik. Shuning uchun huquqiy ta'lim tarbiyani maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlash hamda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida huquqiy darsliklarning yangi avlodini yaratish tizimini izchil tashkil etishga e'tiborli bo'lish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvarda PF-5618-sonli “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishni tubdan takomillashtirish to'g'risida”gi Farmoni

2. Babayeva V.S., Babayeva L.P., Boboyev X.M “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Konsepsiyasi” asosida yoshlarda huquqiy ong va odob-axloq normalarini shakllantirish. Buxdu. uz. 11.01.2022

3. Rustamov N.Ch. Yoshlarning huquqiy savodxonligini yuksaltirish - davlat siyosati darajasida. “Yangi O'zbekiston taraqqiyotida xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish: muammo va yechimlar. RIAAM. Toshkent 2022. 139-141-bet.”



КИБЕРЖИНОЯТЧИЛИККА ҚАРШИ КУРАШИШ МЕХАНИЗИМЛАРИ

Тўраев Сардор Абдихаким ўғли
Тошкент давлат юридик университети
таянч докторанти
телефон: +998977770993
e-mail: sardor_96s@bk.ru

АННОТАЦИЯ: Ҳозирги кунда дунёнинг кўплаб мамлакатлари интернет тармоғидан фойдаланиб, иктисодий ва сиёсий маълумотлар алмашиш натижасида, кибержиноятчиликнинг ҳам турлихил кўринишлари ривожланиб бормоқда. Мазкур мақола мамлакатимизда кибержиноятчиликка қарши курашиш механизмларидан фойдаланиб жиноятчиликни олдини олиш масалаларини ва кибержиноятчилигининг моҳиятини очиқ беради.

КАЛИТ СЎЗЛАР: Кибержиноятчиликка қарши курашиш механизмлари, кибер механизм, интернет, компьютер, фирибгарлик, хаккер, фирибгар, ахборот асри.

Ўзбекистонда ахборот коммуникация технологияларининг кенг жорий этилаётгани натижасида ташкилот ва муассасалар ўзларининг веб-сайтлари ва автоматлаштирилган маълумотлар базаларини яратаётгани айтиб ўтилди. Бу эса, шубҳасиз, маълумотларни ҳимоялаш, махфийлигини ҳамда уларни турли таъсирлардан ҳимоялаш заруратини келтириб чиқармоқда. Зеро, зарур ахборотларни ҳимоя қила олмаслик уларнинг жиноят қуролига айланмаслигига ҳеч ким кафолат бера олмайди.

Банк-молия соҳасидаги йирик муассасалар, онлайн тўлов жараёнларини амалга оширувчи тизимлар, савдо мажмуалари, меҳмонхона ва савдо терминаллари энг кўп фойдаланиладиган марказлар хакерларнинг асосий диққат марказида туради.

Замонавий кибержиноятчилик орқали бугун хакерлар уларни ёллаётган муассасаларга хизматларини сотишга муваффақ бўлмоқдалар. Улар ўзлари кирган тизимлардан маълумотларни ўғирлаб, миждозларига сотадилар. Ёки ёлланма қотиллар каби, бошқа компаниянинг ахборот тизимларини йўқ қиладилар [1].

Бугунги кунда кибер жиноятчиликда муайян шахснинг ёки объектнинг географик жойлашган нуқтаси тўғрисида хабар тарқатиш, шахсий маълумотлар базасини бузиб кириш каби хизматлар оммалашган. Хакерлар бу каби маълумотларни интернет ва ижтимоий тармоқ фойдаланувчилари томонидан турли электрон ресурсларга уларнинг фойдаланиш шартларини ўқимасдан туриб киришлари эвазига олишмоқда.

Интернет-фирибгарлик ёки фойдаланувчилар махфий маълумотларидан ноқонуний фойдаланиш энг кенг тарқалган ана шундай хавфлардан ҳисобланади. Бундай қинғир мақсадларга, одатда, сервис ичида машҳур брендлар номидан электрон хатлар ва шахсий маълумотларни оммавий тарқатиш орқали эришилади.

Кибер-жиноят бутун дунёда оддий жиноятларга тенглаштирилмоқда, уларни содир этган шахслар эса қонун бўйича жазоланмоқда [2].

Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексида компьютер техникаси воситаларидан фойдаланиб, ўзлаштириш ёки растрата қилиш йўли билан талон-торож қилиш, компьютер тизимига руҳсатсиз кириб содир этилган ўғирлик, ахборотни ноқонуний тўплаш, уни ошкор этиш ёки ундан фойдаланиш каби компьютер жиноятлари кўзда тутилган.

UZ-CERT хизмати ходимлари кибер-жиноятни текширишда жиноят изини яшириш мақсадида йўқ қилинган маълумотларни қайта тиклайди.

Жиноятчилар тармоқлар базавий узеллари ва ахборот ресурслари ишлаш қобилияти, тизимдаги ахборотнинг бузилишига сабаб бўладиган хужумлар, шунингдек маъмурий имтиёзларга эга бўлишга қаратилган турли тармоқ хужумлари ҳамда миллий ахборот ресурслари ва алоҳида хостларга йўналтирилган «хизмат кўрсатишни рад этиш» хужумларини (DoS ва DDoS-хужумлар) уюштирмоқда [3]. Хакерлар кўп ҳолларда бошқалардан ажралиб туриш ниятида компьютер вируслари ва зарарли дастурларни яратиш ҳамда тарқатишга ҳам тайёр.

Компьютердан фойдаланувчининг тизими ва ускуналарининг ҳимояланиш даражаси унинг ахборот технологияларини яхши билиши, ўз маълумотларини ҳимоя қилиш ҳамда



компьютерининг ишлаш қобилиятини сақлай олишига ҳам боғлиқдир. Ихтисослаштирилган ҳимоя дастурлари – антивируслар шахсий компьютерни ҳимоя қилишнинг энг замонавий ва ишончли воситаси бўлиб қолмоқда. Ижтимоий тармоқлар ва бошқа интернет-ресурсларга кириш учун фақат браузерни очишни биладиган фойдаланувчи учун антивируснинг энг муҳим вазифаси – максимал хавфсизликни таъминлаш [4].

Шу билан бирга, кибер-хавфсизликни таъминлашда ахборот-коммуникация технологияларини ривожлантириш, хусусан, маълумотлар узатиш бўйича глобал тармоқ хизматларини тақдим этаётган, халқаро ахборот ресурсларидан фойдаланиш имкониятини яратаётган ва интернет-кафелар ташкил қилаётган турли хўжалик субъектлари ҳам муҳим аҳамият касб этмоқда.

Пойтахтимиздаги айрим интернет-кафелар маъмурларининг сўзларига кўра, ахборот хавфсизлигини таъминлаш энг муҳим вазифалардан биридир. Бунда сигнатуралари ҳар куни янгиланадиган энг сўнгги антивируслардан фойдаланиш яхши самара беради. Шунингдек лицензияга эга дастурий таъминотдан фойдаланиш ҳам муҳимдир.

Мамлакатимизнинг давлат муассасалари, банклари ва вазирликлари автоматлашган ахборот тизимлари ва дастурий комплекслар билан кенг таъминлангани уларнинг тезкор фаолият кўрсатиши, турли операцияларни бажаришига хизмат қилмоқда. Шу боис мамлакатимизда барча давлат ахборот тизимлари хавфсизлигини таъминлаш борасида зарур чора-тадбирлар кўрилмоқда, кибер-таҳдидларга қарши ишонч-ли тизим яратилган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Томчак Е.В. Из истории компьютерного терроризма.//Новая и новейшая история. 2012.№1.С.135.
2. Фролов Дмитрий, История информационной преступности. - // Закон. 2013. № 12.- С.34
3. Томчак Е.В. Из истории компьютерного терроризма.//Новая и новейшая история.2014.№1.С.135.
4. Малышенко Д.Г.Противодействие компьютерному терроризму – важнейшая задача современного общества и государства.- www.oxpaha.ru.



SOXTA TADBIRKORLIK JINOYATINING UMUMIY TAVSIFI VA BELGILARI

Ravshanov Surat
TDYU Korrupsiyaga
qarshi kurashish va kompleyans
nazorati yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqola soxta tadbirkorlik jinoyatining umumiy va huquqiy tavsifi, uning o'ziga xos belgilari haqida alohida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Tadbirkorlik, jinoyat, huquqiy, soxta tadbirkorlik, jinoyat belgilari, iqtisodiyot.

Yuridik fanda soxta tadbirkorlik jinoyatining jinoiy-huquqiy tavsifi haqida so'z yuritilganda mazkur normaning Jinoyat kodeksida joylashgan o'rni hamda uning belgilari va jinoyat tarkibiy elementlari to'g'risida to'xtalib o'tish joiz hisoblanadi. Soxta tadbirkorlik jinoyatining belgilari, uning ob'ekti va sub'ekti shuningdek, bu jinoyatning ichki (subyektiv tomon) va tashqi (obyektiv tomon) tomonlardan qanday sodir etilishini to'g'risida tasavvur hosil qilganimizdan so'nggina ushbu jinoyatga kriminalistika nuqtai nazardan yondashish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Ta'kidlash lozimki, soxta tadbirkorlik jinoyati o'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining maxsus qismidagi “Iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar” deb nomlangan XII bobidagi 179-moddasida o'z ifodasini topgan.

Unga ko'ra, soxta tadbirkorlik - ustavida ko'rsatilgan faoliyatni amalga oshirish maqsadini ko'zlamasdan ssudalar, kreditlar olish, foydani (daromadni) soliqlardan ozod qilish (soliqlarni kamaytirish) yoki boshqacha mulkiy manfaat ko'rish maqsadida korxonalar va boshqa tadbirkorlik tashkilotlari tuzishda namoyon bo'ladi.

Mazkur normaning jinoiy-huquqiy ahamiyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, har qanday qilmishni jinoyat yoki ijtimoiy xavfli bo'lgan harakat (harakatsizlik) sifatida e'tirof etish uchun zarur bo'lgan o'ziga xos belgilari mavjud.

Jinoyat huquqi nazariyasiga binoan, ular quyidagi belgilar:

- ijtimoiy xavflilik;
- huquqqa xiloflik;
- ayblilik;
- jazoga sazovorlik.¹

Soxta tadbirkorlik jinoyatini jinoiy-huquqiy belgilarini yoritib o'tish maqsadga muvofiq.

1) Ijtimoiy xavflilik – qonun hujjatlari bilan qo'riqlanadigan ob'ektlarga zarar yetkazuvchi ijtimoiy xavfli qilmish yoki shunday zarar yetkazish real xavfini keltirib chiqaruvchi qilmish.

Iqtisodiyot sohasida sodir etiladigan jinoyatlar natijasida mulkka, davlatning iqtisodiy tizimiga shuningdek, ba'zi hollarda shaxs sog'ligiga ham zarar yetkaziladi.²

Soxta tadbirkorlik jinoyati sodir etilishi natijasida, davlat tomonidan belgilangan qonuniy tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishni ko'zlamasdan faoliyat olib borilishi natijasida davlat byudjeti va davlatning iqtisodiy tizimiga uning iqtisodiy salohiyatiga, shuningdek, boshqa shaxslarning iqtisodiy manfaatlariga zarar yetkaziladi yoxud shunday zarar yetkazish real xavfi vujudga keladi.

Undan tashqari, Kabulovning fikricha, soxta tadbirkorlikning ijtimoiy xavfliligi, u respublikaning iqtisodiy manfaatlariga ziyon yetkazilishi bilan belgilanadi. Mazkur jinoyat davlat tomonidan beriladigan imkoniyatlardan foydalanib, shaxsiy g'arazli maqsadlarda korxonalar ko'radigan daromadlardan turli shaxslarning shaxsiy boyib ketishiga olib keladi va davlat tomonidan iqtisodiyotimizni rivojlantirish uchun ajratilayotgan mablag'larning behuda sarflanishiga olib keladi.³

2) Huquqqa zidlik – huquq normalariga zid harakat yoki harakatsizlik bo'lib, jamiyatda

1 Kochoi S.M. “Ugolovnoe pravo” Obshaya i Osobennaya chasty: Uchebnyk. — M., 2009. — s 738./ s32.

2 Alekseev A.M. “Obshestvennaya opasnost' prestupleniy v sfere ekonomiki kak vajneyshee sosial'noe osnovanie zakonodatel'stva ob otvetstvennosti za nix”. Nauchnyy stat'ya.Probeli v rossiyskom zakonodatel'stve: 2011g №04.

3 KabulovR.,Otajonov A..“Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar”: O'quv qo'llanma/– T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2013. – 166 b/ 84 b.



mavjud huquq normalarining buzilishida namoyon bo'ladi.

Soxta tadbirkorlik jinoyatlarini sodir etilishida ham, tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishga qaratilgan huquq normalarining qo'pol buzilishi Jinoyat kodeksini 179-moddasida nazarda tutilgan jinoyat tarkibini keltirib chiqaradi.

3) Ayblilik – ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsning qilmishiga bo'lgan ruhiy munosabatidir.

Soxta tadbirkorlik jinoyatlari o'z xususiyatlari va sodir etish usuliga ko'ra, to'g'ri qasd orqali sodir etiladi.

4) Jazoga sazovorlik – qilmishida jinoyattarkibi aniqlangan shaxsni jazoga sazovor deb topilishidir.

Ustavida ko'rsatilgan faoliyatni amalga oshirish maqsadini ko'zlamasdan ssudalar, kreditlar olish, foydani (daromadni) soliqlardan ozod qilish (soliqlarni kamaytirish) yoki boshqacha mulkiy manfaat ko'rish maqsadida korxonalar va boshqa tadbirkorlik tashkilotlari tuzish kabi harakatlarni sodir etilishi JKning 179-moddasi bilan javobgarlikni keltirib chiqarishi bilan ushbu harakatlar uchun jazo tayinlashning muqarrarligini anglatadi.

Mazkur normani jinoyat tarkibi elementlari bo'yicha tahlil qilishdan oldin ushbu normadagi ayrim tushunchalarni yoritib o'tish maqsadga muvofiq.

Tadbirkorlik yoki tadbirkorlik faoliyati tushunchalarini turlicha qonunlarda turlicha yoritilganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, mazkur sohani tartibga solishga qaratilgan qonun hujjatlarida mazkur tushunchalarning huquqiy maqomi mustahkamlangan.

Xususan, O'zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida”gi qonunga binoan, tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) - tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.¹

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) – bu belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.²

Jinoyat huquqiga binoan, jinoyat obyekti: faqat ijtimoiy munosabatlarni tashkil qilishi, ushbu ijtimoiy munosabatlarning jinoyat qonuni bilan qo'riqlanganligi, hamma vaqt jinoyat tarkibining zaruriy belgisi ekanligi, obyektning yo'qligi jinoyat mavjud emasligini anglatishligi kabi xususiyatlar bilan tavsiflanadi.

Mazkur jinoyatning obyektiga ta'rif berishda uni umumiy, maxsus, turdosh va bevosita obyektlarga ajratish maqsadga muvofiqdir.

Soxta tadbirkorlik jinoyatining umumiy obyekti – jinoyat qonunchiligi bilan qo'riqlanadigan barcha ijtimoiy munosabatlar bo'lib, Jinoyat kodeksining 2-moddasiga muvofiq, soxta tadbirkorlik jinoyatida bunday munosabatlar sirasiga shaxs, uning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarinikeltirish mumkin.

Soxta tadbirkorlik jinoyatining maxsus obyekti – jinoyat qonuni uchinchi bo'limi asosida qo'riqlanadigan iqtisodiyot sohasidagi ijtimoiy munosabatlar.

Soxta tadbirkorlik jinoyatining turdosh obyekti – Jinoyat kodeksi Maxsus qismi XII bobida nazarda tutilgan davlatning iqtisodiyot asoslarini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy munosabatlardir. Bizga ma'lumki, har bir jinoyatning yadrosini tashkil etuvchi mazkur jinoyatning bevosita ob'ektidir. Soxta tadbirkorlik jinoyatining bevosita ob'ektiga nisbatan olimlar tomonidan turlicha yondashuvlar ilgari surilganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, rus olimi M.Yu.Koviyarovning fikricha, tadbirkorlik sub'ektlarining o'rnatilgan tartib doirasida faoliyat olib borishini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlar soxta tadbirkorlik jinoyatining bevosita ob'ektini tashkil etadi.³

Shuningdek, G.O.Ermatov soxta tadbirkorlikning bevosita obyektini tadbirkorlik va boshqa tijoriy faoliyatni tartibga solishga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi degan fikrni ilgari

1 O'zbekiston Respublikasining 02.05.2012 yildagi O'RB-328-sonli “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida”gi qonunning (Manba:«Xalq so'zi», 2012 y., 86 (5506)-son; O'R QHT, 2012 y., 18-son, 201-modda) 3-moddasi

2 O'sha Qonunning 4-moddasi

3 Koviyarov M. Yu “Ugolovno-pravovaya xarakteristika ljepredprinimatel'stva”:Avtoreferat M.,2008. -28 s.- Bibliogr. : s. 27.5.



suradi.¹

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq qonunchiligini qo‘llashda sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori hamda M.H.Rustambaevning rahbarligi asosida mualliflar jamoasi tomonidan yozilgan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar va O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursining 4-jildida mazkur jinoyatning bevosita ob‘ekti korxonalar yoki boshqa tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchi tuzilmalarning qonunda, o‘z ustavida belgilangan faoliyatini ta‘minlovchi ijtimoiy munosabatlar, shuningdek davlat jamiyat va fuqaroning tadbirkorlik faoliyati sohasidagi iqtisodiy manfaatlari hisoblanadi.^{2/3} Shu bilan birga, Soxta tadbirkorlik jinoyati natijasida tadbirkorlik faoliyati g‘oyalarga ham tajovuz qilinadi.⁴

Jinoyat huquqiga ko‘ra, jinoyat tarkibining obyektiv tomoni – tajovuzning ijtimoiy maqsadida korxonalar va boshqa tadbirkorlik tashkilotlarni tuzishda ifodalanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 40-moddasiga muvofiq, foyda olishni xavflilik darajasini ifodalaydigan, jinoyat qonuni bilan quriqlanadigan obyektga qarshi qaratilgan ijtimoiy xavfli tajovuzning tashqi holatini tavsiflovchi obyektiv, ijtimoiy va yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan belgilar yig‘indisidir.⁵

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Kochoi S.M. “Ugolovnoe pravo” Obshaya i Osobennaya chast: Uchebnik. — M., 2009
